**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**“MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” KAFEDRASI**

# "MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI"

**mavzusidagi**
**V xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**MATERIALLAR TO‘PLAMI**
**III QISM**
**2026-yil 17-mart**

**Toshkent – 2026**

**UOʻK:** 336.76(575.1)(063)
**KBK:** 65.262(5Ўзб)я431

**"Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari"** mavzusidagi V xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari toʻplami III qism. –T.: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “Oʻzbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi. 2026. -506 b.

Ushbu toʻplam “Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusida boʻlib, unda “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida respublika moliya bozorining dolzarb muammolari va ularning yechimlari, moliya-bank tizimidagi islohotlar orqali milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish masalalari, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning ustuvor yoʻnalishlari, fond bozorini rivojlantirish imkoniyatlari kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallarning bayoni keltirilgan.

Toʻplamga oliy oʻquv yurtlarida iqtisodiy muammolar boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-oʻqituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qoʻmita va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistr va talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

Toʻplamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik maʼlumotlar va keltirilgan meʼyoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning oʻzlari masʼuldirlar.

**Masʼul muharrir:** i.f.d., prof. S.K.Xudoyqulov

**Tahrir hayʼati:**
DSc, prof. F.I. Isayev
DSc, dots. S.Z. Abrorov
i.f.n., prof. X.A. Qobulov

**Taqrizchilar:**
DSc, prof. Z.A. Shamansurova
DSc M.B. Umarova
PhD S.I. Xalikchayeva

**Tashkiliy guruh aʼzolari:**
M.Berdaliyeva
Oʻ.Axmedova
F.Sindarov
A.Xurramov

**ISBN** 978-9910-625-38-1

*© “Oʻzbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM, 2025-yil*

# MUNDARIJA

## I SHO‘BA
## "O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA MOLIYA BOZORINING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNI ESG TAMOYILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI


| | | |
|---|---|---|
| Jahongirov K. | O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida ta’lim turizmini rivojlantirishning nazariy va amaliy imkoniyatlari…………………………… | 12 |
| Shodmonov R.G‘., Tohirova M.U. | Yashil iqtisodiyotga o‘tish davrida moliya bozorining transformatsiyalashuvi…………………………………………………………… | 15 |
| Ro‘ziyeva D.I., Jo‘ramurodova F.M. | Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yashil iqtisodiyotdagi o‘rni.. | 19 |
| Abdumannobova G. | O‘zbekiston sharoitida yashil soliq mexanizmlarining esg rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishga ta’sirini takomillashtirish……………………………………. | 23 |
| Муслимова Ф. | Энергоэффективность ввп как esg-индикатор устойчивого развития: эконометрический анализ для Узбекистана………………… | 26 |
| Kholikov Kh. | Uzbekistan’s green and SDG bonds: turning sustainability commitments into scalable financing………………………………………………………………… | 29 |
| Ибрагимова С.А., Мурадов Ш.Д. | Перспективы использования ESG-принципов в нефтегазовом секторе экономики……………………………………………………………… | 31 |
| Aliqulova N.B. | Global moliya bozorida ESG tamoyillari asosida yashil obligatsiyalar emissiya holati tahlili…………………………………………………………… | 35 |
| Xikmatova H.F. | Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda tijorat banklarining institutsional roli va amaliy mexanizmlari……………………………………… | 38 |
| Sharipov Q.Q. | Moliya bozorini rivojlantirish muammolari va uni takomillashtirish yo‘nalishlari…………………………………………………………………… | 41 |
| Жиянова Н.Э., Зохидова Д.У. | Пути совершенствования корпоративного управления в страховых организациях…………………………………………………………… | 43 |
| Sultonov Sh.N. | Moliya bozorining tarkibiy qismi sifatida fond bozorini rivojlantirish imkoniyatlari………………………………………………………………………… | 45 |
| Mirzayev Sh. | Mega investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi asosiy muammolar va ularni moliyalashtirish mexanizmlari………………………………………… | 47 |
| Nematova S.X. | Moliya bozori infratuzilmasini takomillashtirish orqali O’zbekiston iqtisodiyotiga to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish strategiyalari……………………………………………………………………… | 49 |
| Ismatullayev J.A. | Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash……………………………………………………… | 53 |
| Ismatova S.A. | Hududlar barqaror raqobatbardoshligini ta’minlashda ESG tamoyillariga asoslangan moliya bozori rivojlanishining ahamiyati…….. | 57 |
| To‘g‘onov I. | O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini moliya bozori va ESG tamoyillari asosida takomillashtirish istiqbollari………………………………………………………… | 60 |
| Saparbaeva A.A. | Enhancing financial market stability through the development of institutional investors in Uzbekistan……………………………………………. | 64 |
| Valiyev B.B. | Moliya bozori barqarorligini ta’minlashda yashirin iqtisodiyot bilan kurashish jihatlari……………………………………………………………………… | 67 |
| Turg‘unov J.A. | Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va ESG tamoyillarining iqtisodiy mazmuni…………………………………………………………………………… | 70 |
| Худойбердиева Д. | Барқарор иқтисодий тараққиётни таъминлашда яшил иқтисодиётнинг ўрни ва аҳамияти……………………………………………… | 73 |

| | | |
|---|---|---|
| Jumayeva G.Sh. | Oʻzbekiston korporativ boshqaruv samaradorligini ESG tamoyillari asosida rivojlantirish tendensiyalari…………………………………………………….. | 78 |
| Abdumurotov Sh., Ismoilov O.J. | Turizm sektorida investitsiya muhitini rivojlantirishda institutsional investorlarning roli…………………………………………………………………………… | 80 |
| Davronova D. D. | Moliya bozori ishtirokchilarining esg reytingini oshirishda daromadlar hisobining shaffofligini ta’minlash masalalari……………………………………. | 83 |
| Olimxonova D.A. | Oʻzbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari faoliyatining moliyaviy tahlil usullari……………………………………………………………….. | 86 |
| Boymurodova L.T. | Oʻzbekiston – 2030 strategiyasi doirasida sugʻurta bozoridagi dolzarb muammolar va iqtisodiy globallashuv sharoitida sugʻurta munosabatlarining ahamiyati……………………………………………………………… | 89 |
| Jo’rayeva X.M. | “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliya bozorining dolzarb muammolari va uni esg tamoyillari asosida takomillashtirish istiqbollari………………………………………………………………………………….. | 92 |
| Mamayusupova Sh.U. | Yashil moliyalashtirish tizimining nazariy asoslari va rivojlanish tendensiyalari…………………………………………………………………………….. | 96 |
| Hasanova S.B. | Oʻzbekiston – 2030 strategiyasi doirasida toʻqimachilik korxonalarida ESG standartlari asosida narx shakllanishi metodologiyasini takomillashtirish……………………………………………………………………….. | 100 |
| Baratova Z.X. | Aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish…………………………………………………………………………….. | 103 |
| Ollokulova F.M. | Davlat xususiy sheriklik loyihalarini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirishning ustuvor yoʻnalishlari……………………………………….. | 105 |
| Safarov M.A. | Hududlar moliyaviy rivojlanishida turizmning oʻrni va iqtisodiy ahamiyati…………………………………………………………………………………….. | 108 |
| Xasanov B.A., Maxmudov A.N. Atamurodov S.Y. | “Yashil iqtisodiyot” sharoitida xoʻjalik yurituvchi subyektlar pul oqimlari auditini takomillashtirish masalalari…………………………………….. | 112 |
| Alikulova N., Aliboev U. | Preparation for global ipos and analysis of successful practices: evidence from foreign companies……………………………………………………. | 116 |
| Quvondiqov M. | Oʻzbekiston aksiyalar bozori rivojlanishining hozirgi holati va institutsional muammolari…………………………………………………………….. | 121 |
| Mirzaaxmedova N. | Oʻzbekistonda moliya bozorini rivojlantirishda ESGni joriy etish masalalari……………………………………………………………………………………. | 124 |
| Otaboyev U.U. | Yashil texnologiyalar asosida sanoat modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorligini ESG koʻrsatkichlari orqali baholash metodologiyasi….. | 126 |
| Ismoilov Sh.I. | Aholi daromadlari va sugʻurta xizmatlariga talab oʻrtasidagi bogʻliqlikni ekonometrik baholash…………………………………………………………………… | 131 |
| Saidov J.L., Ahmadova S. | Oʻzbekiston kapital bozorida aksiyalarning baholanishi: rivojlanayotgan bozor kontekstida empirik tahlil……………………………. | 135 |


## II SHOʻBA
## MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR ROLINI OSHIRISH


| | | |
|---|---|---|
| Валижонов А. | Корхоналарнинг инвестицион жозибадорлигини оширишда молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларини жорий этишнинг аҳамияти……………………………………………………………….. | 140 |
| Boʻriyev J. | Xorijiy tijorat banklarida aksiyadorlar bilan munosabatlar yoʻnalishlari | 142 |

| | | |
|---|---|---|
| Утепова Г.Б. | Цифровая трансформация международных финансовых отношений и перспективы внедрения цифровых валют в Узбекистане | 144 |
| Xalikulova Sh.U. | Sugʻurta tashkilotlari investitsiya faoliyatini takomillashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni taʼminlash | 147 |
| Xudoyberdiyeva X. | Turizm sohasini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish | 151 |
| Nizamov X.F. | Oʻzbekiston moliya bozorida institutsional investorlar rolini oshirishning iqtisodiy ahamiyati | 153 |
| Mamataliyev B.S. | Investitsiyalarni fond bozori orqali jalb qilish istiqbollari | 156 |
| Хўжамуродов А.Ж. | Иқтисодиётни трансформацияси жараёнида шаклланган фонд бозори инфратузилмаси таърифланишининг назарий жиҳатлари. | 158 |
| Isaeva A.A. | Improving financial risk management in real sector enterprises through institutional investment mechanisms | 161 |
| Abdullayev S.I. | Tijorat banklarining qimmatli qogʻozlar bozoridagi faoliyatining ahamiyati | 163 |
| Yaxyayev Z.L. | Tijorat banklarida valyuta arbitraji va uning mohiyati | 166 |
| Temirov N. | Bozor iqtisodiyoti sharoitida institutsional investorlar rolini tushuntiruvchi nazariy yondashuvlar | 169 |
| Narzullayeva X.A. | Fond bozoridagi institutsional tuzilmalarning moliyaviy barqarorlikni taʼminlashdagi oʻrni | 172 |
| Abduxakimov E.D. | Institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini taʼminlash mexanizmlari | 175 |
| Mamatkulova N.M. | Moliya bozori infrastrukturasini rivojlantirish orqali toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish | 179 |
| Raxmonberdiyeva F | Oʻzbekistonning xalqaro fond bozorlaridagi ishtiroki samaradorligini oshirish yoʻllari | 181 |
| Мирзарахманов Ф. | Мультилистинговая система как инструмент цифровой трансформации риэлторской деятельности в Узбекистане | 183 |
| Abduraxmonov A.A. | Institutsional investorlar va moliya bozori barqarorligi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik | 185 |
| Nazarova A.N. | The role of the value chain in enhancing the efficiency of foreign investments in the textile industry | 190 |
| Muzrapova Sh.S., Asadova M.A. | Moliya bozori barqarorligini taʼminlashda institutsional investorlar faoliyatida uzoq muddatli majburiyatlar auditini takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslari | 193 |
| Kurbosheva M.X. | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashda banklarning roli | 196 |
| Islomova M.M. | Institutsional investorlar faoliyati samaradorligi va moliya bozori barqarorligi: xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun xulosalar | 199 |
| Turdiqulova L.Z. | Moliya bozori moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash mexanizmini takomillashtirish yo’llari | 201 |
| Boybosinova Sh.M. | Moliya bozori barqarorligini taminlashda institutsional investorlar rolini oshirish | 203 |
| Achilov D.M. | Aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini moliyaviy instrumentlar asosida moliyalashtirish istiqbollari | 205 |
| Xamdamov O.N., Bektemirov S.X. | Rivojlanayotgan mamlakatlar kapital bozorining institutsional xususiyatlar | 207 |
| Xamdamova G.M. | Tijorat banklarida risk-menejmentini takomillashtirish istiqbollari | 210 |

| | | |
|---|---|---|
| Ismailova M.E. | Institutsional investorlarni jalb qilish va xizmat koʻrsatish sektorini rivojlantirish orqali moliya bozorlarining barqarorligini taʼminlash….. | 212 |


## III SHOʻBA
## AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI OQILONA BOSHQARISHDAGI USTUVOR MASALALAR


| | | |
|---|---|---|
| Khakimova N.A. | Innovative mechanisms for the development of the digital economy…….. | 217 |
| Turobov Sh.A. | Moliyaviy savodxonlik darajasining tomorqa xoʻjaliklari daromadi barqarorligiga taʼsiri……………………………………………………………… | 219 |
| Mamadiyeva D.Q. | Raqamli moliya asrida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish – iqtisodiy barqarorlik omili sifatida………………………………………………….. | 222 |
| Рахмонова С.Ф. | Ўзбекистон агросаноати рақобатбардошлигида молиявий саводхонлик ва фискал сиёсатнинг минтақавий хусусиятлари……. | 224 |
| Гозиева М. | Совершенствование механизмов планирования и финансирования расходов в сфере образования как приоритетное направление рационального управления государственным бюджетом…………………………………………………………………………….. | 227 |
| Utegenova S.T., Oralbaeva F.J. | Improving financial literacy through ifrs-based simplified reporting: user-oriented disclosure models for investors………………………………… | 229 |
| Ortiqova G. | MDH davlatlarida yirik soliq to`lovchilar soliq siyosati va ularni O`zbekiston Respublikasi amaliyotida tadbiq etish istiqbollari…………… | 232 |
| Ташматова Р.Г., Роишева Д.Р. | Снижение финансовых рисков домашних хозяйств посредством повышения финансовой грамотности…………………………………………. | 236 |
| Niyazmetov I.M., Xaydarov A.A. | Oʻzbekistonda soliq mexanizmlaridan kambagʻallikni qisqartirishda foydalanish tahlili……………………………………………………………………….. | 239 |
| Niyazmetov I.M., Xaydarov A.A. | Soliqqa tortilmaydigan daromad miqdori orqali kambagʻallikni qisqartirish imkoniyatlari……………………………………………………………… | 242 |
| Gʻoziyeva A.A. | Aholi sugʻurta savodxonligini oshirish masalalari va uning sugʻurta bozori rivojlanishidagi oʻrni……………………………………………………… | 245 |
| Раҳимов С.А., Диярова М.И. | Қурилиш фирмаларини молиявий бошқаришнинг ижтимоий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш………………………….. | 248 |
| Tursunqulov Sh. | Togʻ-kon sanoati korxonalarida yer qaʻridan foydalanganlik uchun toʻlanadigan soliq stavkalari va ularning moliyaviy xavf darajalari……… | 253 |
| Asatullayev X.S. | Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining nazariy jihatlari………………….. | 255 |
| Gʻoziyeva A.A. | Aholi sugʻurta savodxonligini oshirish masalalari va uning sugʻurta bozori rivojlanishidagi oʻrni……………………………………………………… | 258 |
| Ergeshova N. | Sociocultural competence as a foundation for complex skills in financial literacy and global citizenship for international business students……… | 262 |
| Bobakulov T.I., Raximov J.U. | Oʻzbekistonda moliya bozorini ESG tamoyillari asosida rivojlantirish orqali xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvni chuqurlashtirish… | 265 |
| Soatova N.B. | Mahalliy byudjetlar daromadlarini tartibga solish yoʻnalishlari………….. | 269 |
| Базаров Н.С. | Давлат харидлари самарадорлигини ошириш йўллари………………. | 271 |
| Нурмухамедова Б. | Укрепление финансовых источников системы социальной защиты: приоритеты и перспективы………………………………………….. | 274 |
| Alimov U.X., Rustamov M. | Aholini moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet soliq tizimini oqilona boshqarishdagi ustuvor masalalar……………………………………… | 276 |
| Urazov K.B., Obloqulov S.U. | Xoʻjalik yurituvchi subyektlarda soliq imtiyozi va samaradorlik masalalarining nazariy tahlili…………………………………………………………. | 279 |

| | | |
|---|---|---|
| Umarova D.A. | Raqamli hukumat doirasida ko‘rsatilayotgan pullik onlayn xizmatlardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirishda molyaviy savodxonlikning o‘rni | 281 |
| Gaibnazarova Z.M. | Raqamli axborot tizimlari orqali aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimi shaffofligini ta’minlash | 283 |
| Abdusalomova N.B., Botirjonova B.B. | Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarish | 286 |
| Ibragimov Sh.F. | Davlat pensiya tizimining moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish | 289 |
| Turdiqulova L.Z. | Aholi moliyaviy savodxonligini oshirishning iqtisodiy ahamiyati | 293 |
| Oripova S.M. | Ijara operatsiyalarini hisobga olish tizimining aholi moliyaviy savodxonligini oshirishdagi ahamiyati | 295 |
| Annayev A.B. | Hududlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi tashkilotlar | 298 |
| Baxtiyorov U.Q. | Aholining moliyaviy va soliq savodxonligini oshirish: samarali soliq ma’muriyatchiligini tashkil etish, xududlar soliq solohiyatini oshirish negizi sifatida | 304 |
| Amonboyev M. | Zamonaviy oliy ta’lim tizimni o‘ziga xos xususiyatlari | 307 |


## IV SHO‘BA
## SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINING MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR KRAUDFANDING PLATFORMALARIDA QO‘LLANILISHI: ISTIQBOLLAR VA XAVFLAR


| | | |
|---|---|---|
| Жумаев Н., Қўшбоқов О. | Сунъий интеллект асосидаги инвестиция платформалари: Молия бозорларининг янги институционал иштирокчисими? | 313 |
| Asomova D. | Sun’iy intellekt vositalarining moliyaviy texnalogiyalar va kraudfanding platformalarida qo’llanilishi: istiqbollar va xavflar | 318 |
| Ujjwal Das, M. C. Shibin Tad, Sourabh Singha Roy, Khurramov A. | Green accounting and return on investment: an empirical study of indian companies | 320 |
| Хуррамов А.М. | Рақамли трансформация шароитида солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва унинг тадбиркорлик муҳитига таъсири | 328 |
| Zohidov O.Sh. | O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish imkoniyatlari | 333 |
| Azizova K.A. | “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va uni moliyalashtirish yo‘llari | 336 |
| Zoxidova D. | Davlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy tenglikni ta’minlashdagi roli | 339 |
| Hamdamov Sh., Batirov F. | Sun’iy intellekt va kraudfanding platformalar orqali tadbirkorlikni moliyalashtirish hamda bandlikni ta`minlash | 341 |
| Yaxshiboyev R.E. | Sun’iy intellekt asosidagi raqamli platformalar: moliyaviy texnologiyalar va kraudfanding tizimlarida qo‘llanish imkoniyatlari hamda xavflarni baholash | 344 |
| Sulaymanov S.A. | Tijorat banklari likvidligini ta’minlashda institutsional investorlar resurslaridan samarali foydalanish yo‘llari | 347 |
| Samandarova G., Abdusalomova M. | Moliya bozori barqarorligini ta’minlashda institutsional investorlar rolini oshirish | 350 |
| Jumaniyazova F., Toshmirzayev M.M. | Milliy moliya bozori barqarorligini ta’minlashda institutsional investorlarning strategik o‘rni va ularni rag‘batlantirish mexanizmlari. | 353 |

| | |
|---|---|
| Базарбаева Б., Турсунова Ш., Арсланова М. | Применение инструментов искусственного интеллекта в банковской финтех-инфраструктуре: интеграция бухгалтерского учета и анализ рисков ... 354 |
| Muratbaeva A.N. | Xizmat koʻrsatish sohasida sheriklik munosabatlarini boshqarish mexanizmini rivojlantirish ... 358 |
| Xaydarova Sh.D. | Xizmat koʻrsatish sektorini rivojlantirishda moliya bozorining ustuvor yoʻnalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari ... 359 |
| Raxmatova S.Sh. | Fintech platformalarida sun'iy intellektga asoslangan biznes kommunikatsiyasi: Oʻzbekistonda moliyaviy inklyuziyaga ta'siri ... 364 |
| Арзуманян С. Ю. | Инновационные финтех-решения в повышении качества банковских услуг ... 367 |
| Samiyev A.Q., Abdusalomova N.B. | Raqamli moliya bozorida kraudfanding loyihalari ishonchliligini baholashda sun'iy intellekt modellarining oʻrni: xavflarni minimallashtirish strategiyalari ... 369 |
| Азларова А.А. | Трансформация шароитида банк инновацион хизматларида киберхавфсизлик ва аҳоли молиявий саводхонлигини ошириш масалалари ... 371 |
| Sabirov A.H., Normurodov A. | Factoring as a driver for sme business and financial sector development 374 |
| Umarova D.A. | Integration of the artificial intelligence in the unified billing system for enhancing online payments in digital government services in Uzbekistan ... 376 |
| Убайдуллаев С.Ж. | Влияние искусственного интеллекта на финансовые технологии и краудфандинг: возможности, риски и перспективы ... 378 |
| Ziyarov S.M., Raxmatulayeva Z.M., Dilshodova Sh.D. | Tijorat banklarda sun'iy intellekt, fintech va kraudfanding: istiqbollar va xavflar ... 381 |
| Abdullaev U.A., Jaksilikova X. | A semi-markov–hawkes approach to managing the mechanism of a self-organizing trading system ... 384 |
| Begimqulov J.J. | Turizm xizmatlari sohasida fintech va AI texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ... 388 |
| Boboqulov M.H. | The significance of optimal algorithms for fractional-order differential equations in modeling dynamic processes in the financial market........ 391 |
| Ahmedova Z. | Moliya sohasi davlat xizmatlari samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy determinatsiyasi va istiqbollari 392 |
| Суннатов М.Н. | Интеллектуал мулк маҳсулотларини краудфандинг платформалари орқали молиялаштириш механизмлари ... 395 |
| Ermuminov E.E. | Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt yordamida kraudfanding platformalarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va muammolari ... 399 |
| Jurayeva S.Z. | Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning banklar samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ... 403 |
| Исамутдинова Г. | Использование искусственного интеллекта в развитии краудфандинговых платформ ... 405 |
| Tuxtayev A.X. | Mamlakatning xalqaro reytinglardagi oʻrniga ta'sir etuvchi institutsional omillar ... 407 |

**V SHO‘BA**
**ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMI ORQALI DUALISTIK TIZIM MODELINI SHAKLLANTIRISH**


| | | |
|---|---|---|
| Xodjayev H.M. | Tijorat banklarida muammoli kredit qarzlarini boshqarish tizimini dualistik moliya modeli va alternativ moliya ekotizimi asosida takomillashtirish | 413 |
| Astanakulov O.T., Berdaliyeva M.Z. | Malayziyada islom moliyasi ekotizimi evolyutsiyasi | 416 |
| Самандаров Д.О. | Риск-ориентированные механизмы обеспечения финансовой стабильности железнодорожных операторов в условиях либерализации рынка | 420 |
| Egamnazarova G.X. | Soliqlar vositasida aholi daromadlarini oshirish tahlili | 423 |
| Нарзуллаева Ф.А. | Совершенствование организационно-экономических механизмов развития mice-туризма в Узбекистане на основе альтернативной финансовой экосистемы | 425 |
| Qodirov M.F. | O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari | 427 |
| Nurmanova M.U. | Alternativ moliya ekotizimi orqali dualistik tizim modelini ta’lim metodlari asosida tadqiq qilish | 431 |
| Ahmadova Sh.O. | Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va budjet-soliq tizimini oqilona boshqarishdagi ustuvor masalalar | 434 |
| Срожиддинова З., Абдувалиева З.А. | Инвестиционная модель декарбонизации тепличных хозяйств Узбекистана на основе солнечной энергетики | 437 |
| Raxmonova A.T. | Ayollar tadbirkorligida moliyaviy inkluzivlikni oshirish mexanizmlari | 441 |
| Turopova N.X. | Barqaror mintaqaviy rivojlanishni ta’minlashda moliyaviy xavflarni boshqarish strategiyasi | 444 |
| Safarboyev J.S. | Tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etishning zaruriyati va istiqbollari | 446 |
| Pethias Siame | Green beyond the gloss: a critical discourse analysis of AI-mediated ethical retailing and green marketing for eco-conscious consumers | 448 |
| Dadabayev U. | Zamonaviy iqtisodiyotda takaful tizimi va rivojlanish istiqbollari | 458 |
| Ochilova D.A. | Investitsiya loyihalarini baholash va monitoring qilishda maqasid al-shariah va ESG indikatorlari integratsiyasi | 461 |
| Yakubov S.F. | Sug‘urta faoliyatida kapital qo‘yilmalar va ularning moliyaviy manbalari | 463 |
| Xakimov Z.I. | Qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab - quvvatlash zaruriyati va ahamiyati | 466 |
| Erkaboyev A.B., Erkaboyeva Y.B. | Sotsial diskont stavkasining alternativ moliya ekotizimidagi roli | 468 |
| Худойқулов Х.Х. | Ўзбекистонда альтернатив молия экотизимини жорий этиш муаммолари | 472 |
| Mamadaliyev P.M. | Suveren kredit reytinglarini tashqi qarz jalb qilishdagi ahamiyati | 475 |
| Разиков У.З. | Давлат иштирокидаги корхоналарнинг акцияларини оммавий жойлаштириш муаммолари | 477 |
| Sultanov M.A. | Institutsional investorlar faoliyatida kriptovalyutadan foydalanish imkoniyatlari | 480 |
| Мўминова М.Б., Одилжонова А.Б. | Банклар рақамлаштирилганлик даражасини аниқлашга қаратилган миллий индексни шакллантиришнинг илмий асослари | 482 |

| | | |
|---|---|---|
| Urazov K.B., Obloqulov S.U. | Soliq imtiyozlari investitsiya muhitini rivojlantirish omili………………….. | 485 |
| Yuldasheva D. | Increasing the financial sustainability of agricultural clusters in Uzbekistan……………………………………………………………………………… | 487 |
| Abdukodirova Sh.B. | Analysis of international practices for ensuring the financial stability of insurance companies……………………………………………………………………… | 489 |
| Nazarov A.A. | moliya bozori barqarorligini ta’minlashda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning roli………………………………………………………………… | 493 |
| Seytimbetov D.M., Allamuratova N.K., Islomova N. M. | Kraudfanding platformalarida firibgarlik loyihalarini aniqlashda neyron tarmoqlarining samaradorligi……………………………………………… | 496 |
| Seytimbetov D.M., Allamuratova N.K., Islomova N. M. | Kraudfanding platformalarida firibgarlik loyihalarini aniqlashda suni’y intellekt algoritmlarining qo’llanilishi……………………………………………… | 497 |
| Yusupov Sh.B. | Sanoat korxonalarida esg tamoyillarini joriy etish orqali mintaqa moliya bozori barqarorligini ta'minlash (Xorazm viloyati misolida) ……………… | 499 |
| Aliqulova N.B., Jamoliddinova M. | O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda yashil obligatsiyalarning o‘rni va istiqbollari……………………………………………… | 503 |

yetarli darajada aniq ishlab chiqilmaganligi, ya'ni ushbu dasturlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan subyektlarni aniqlash mezonlarining aniq belgilab qo'yilmaganligi byudjet mablag'laridan samarasiz foydalanish xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli subsidiya ajratish jarayonida shaffof va aniq iqtisodiy mezonlarga asoslangan mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreditlar va subsidiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlashda muhim moliyaviy instrument sifatida xizmat qilishi bilan birga, ularning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Xususan, uzoq muddat davomida moliyaviy ko'makning yuqori darajada saqlanib qolishi qishloq xo'jaligi korxonalarining subsidiya va imtiyozli kreditlarga haddan tashqari bog'lanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada, korxonalar tomonidan mustaqil rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va bozor sharoitlariga moslashuvchan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari sustlashishi ehtimoli yuzaga keladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirish jarayonida turli moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarining muqobil variantlarini kompleks tahlil qilish hamda eng samarali shaklini tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlab, ajratilayotgan moliyaviy yordamning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va investitsion faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


***Foydalanilgan adabiyotlar:***

*1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida|| gi PF-5853-son farmoni. 2019 yil 23 oktabr.*

*2. Alimardonov I.M. Kichik biznes sub'ektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd . et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 29.*

*3. Bondarenko V.S., Shishkina D.A. Neobxodimost i napravlenii gosudarstvennoy finansovoy podderjki selxozpredpriyatiy rossiyskogo APK//Vestnik SGSEU. – Saratov, 2018. –№ 5. – S. 131-135.*

*4. Burmistrov N.A. Formirovanie modernizirovannoy strategii razvitiya predpriyatiy piщevoy promыshlennosti. Avtoref. diss. na soisk. uch. st. k.e.n. – Saratov, 2011. – S. 20.*

*5. Xakimov Z.I. Uy xo'jaligida baliq yetishtirishni moliyaviy qo'llabquvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish. International cjnference on learning and teaching, 2022 , №5; 97-101- betlar.*


## SOTSIAL DISKONT STAVKASINING ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMIDAGI ROLI


***Erkaboyev Abdulaziz Baxromovich***
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ,*
*Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasi o'qituvchisi*
***Erkaboyeva Yulduz Baxromovna***
*"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti,*
*Xalqaro menenejment fakulteti talabasi*


Ma'lumki, so'nggi yillarda iste'molchilar ham, ishlab chiqaruvchilar ham yashil, intensiv, tejamkor, inklyuziv – umuman olganda barqaror iste'mol va ishlab chiqarishga

tobora intilmoqdalar. Ushbu tendentsiya investitsion muhit va moliyaga ham tasir ko'rsatmay qolmaydi. Jahon moliya tashkilotlaridan tortib, turli lokal fondlar va kichik investorlargacha o'z sarmoyalarida foyda olishdan tashqari ularning yo'naltirish maqsadlariga ham barqarorlik kriteriylari bo'yicha talab qo'ymoqdalar.

Avvalgi sanoatlashuv davrida, xususan XX asrda, moliyaviy qo'yilmalardan dividend, foiz va boshqa qaytim darajalari katta bo'lgan. Chunki dunyoda ishlab chiqarish va iste'molga nisbatan resurslar miqdori ko'proq bo'lgan. Masalan, neft, gaz va minerallarni qazib olish, metallurgiya, qurilish, avtomobilsozlik kabi og'ir sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar o'rtacha 20% va undan ham ortiq qaytimga ega bo'lgan. Shuningdek, XX asr 80-yillarida tekstil, komputer va elektronika, 1990-yillardan boshlab esa AKT sohlariga qaratilgan sarmoyalarning qaytimi yuqorilab borgan. Lekin uzoq muddatda ularning tabiatga salbiy ta'siri, turli karbon dioksid ($CO_2$) kabi zararli moddalar emissiyasi va sanoat-maishiy chiqindilarning ko'payishi nafaqat tabiyatshunos va ijtimoiy yo'nalgan tashkilotlarni, balki Jahon Banki, Xalqaro valyuta fondi, yirik investitsion institutlarni ham e'tiborini qarata boshladi.

Sotsial (ijtimoiy) diskont stavkasi (keyinchalik SDR, ingliz tilida Social Discount Rate) – bu zamonaviy iqtisodiy o'sish nazariyalarida tobora ko'proq qo'llanilayotgan konseptsiya bo'lib, investitsiya va jamg'armalarni turli kriteriylar bo'yicha vaznlangan stavka darajasini ifodalaydi. An'anaviy nominal va real foiz stavkasidan farqli ravishda u nafaqat inflyatsiya, soliq va badal to'lovlari, amortizatsiya, iste'mol kabi sof iqtisodiy vaznlarni, balki inson sog'lig'i, atrof-muhitni asrash, kelajak avlodlari uchun qayg'urish kabi tabiiy va ijtimoiy masalalarni ham baholash mezoni sifatida qamrab oladi. Umuman olganda, ushbu stavka jamiyat va inson nafligi asosida korrektirovka qilingandir. Uning o'ziga xosligi quyidagilarda:

- amaliyotda ommalashib borayotganligiga qaramay hamon akademik mazmuni nisbatan yuqoriroq;
- uni o'lchash murakkab hisob-kitoblarni va farazlarni talab qiladi, shuning uchun u turli mamlakat va xalqaro institutlarda turlicha yondashuvga ega;
- odatda uzoq muddatli, 75-100 yoki 200 yillik loyihalar uchun belgilanadi.

Uning nazariy asoslari birinchi navbatda an'anaviy iqtisodiyot nazariyasida qo'llaniladigan eksternallar, iste'mol va jamg'armaning vaqtlararo taqsimoti, shuningdek, rivojlanib borayotgan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish konseptsiyalariga tayanadi. Ushbu nazariy tushunchalarni moliya va investitsiya yo'nalishlarining "Kapital-aktivlarni baholash modeli" (CAMP), "Qisman korrektirovka modeli" kabi amaliy xarakterga ega modellarga kiritgan holda ularni modifikatsiya qilish ham mumkin.

Ma'lumki, iqtisodiyotda va investitsion qaror qabul qilinishda foiz yoki diskontlash stavkasi va uning usuliga qarab yakuniy natija turli bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, nominal va real stavkalar alohida ahamiyatga ega. Ushbu stavkalar SDR ning alohida ko'rinishi, yoki aksincha, SDR real stavkaning xususiy shakli sifatida ko'rilishi mumkin. Diskontlash uchun qaysi kriteriyni tanlash esa alohida masala bo'lib, bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Nominal foiz stavkasi amaliyotda eng qisqa muddatda qo'llashga mo'ljallangan bo'lib, uning asosi pul birligidir. Ma'lumki, nominal foiz stavkasi asosida har bir AQSH dollaridagi investitsiyalarning hozirgi keltirilgan qiymati quyidagicha hisoblanadi

$$\mathrm{PV} = 1\$ * \mathrm{e}^{-it}$$

Bu yerda PV – keltirilgan qiymat, $i$ – nominal foiz stavkasi va $t$ – vaqt birligi.

Real diskontlash stavkasi ham amaliyotda nisbatan uzoq muddatli loyihalarda ko'p qo'llanilib, birinchi navbatda inflyatsiya, shuningdek, investorning kutilayotgan foydasini kamaytiradigan omillarga korrektirovka qilinadi. Ma'lumki, real va nominal stavkalar orasida quyidagi bog'liqlik mavjud

$$r = i + \pi$$

bunda $i$ – avvalgidek nominal Stavka, $r$ – real savka va π – inflyatsiya darajasi.

Yuqoridagi ikki o'lchovlar o'chash imkoniyati va qisqa yoki o'rta muddatiga ko'ra nisbatan amaliy hisoblanib, ham makro, ham mikro darajadagi investitsion loyihalarda keng qo'llaniladi va shuning uchu ommalashgan. Keyingi parametrlar esa abstrakt xarakterga egaligi va uzoq muddatli loyihalarga mos kelganligi uchun makro darajadagina qo'llash mumkin. Ko'plab bunday parametlar orasida iste'mol va naflikka asoslangan diskonlash stavkalarini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, ayni vaqtdagi iste'mol istiqboldagi investitsion foyda va dividendlar uchun muqobil xarajat hisoblanganligi uchun, kelajakdagi iste'molning ko'proq bo'lishi bilan rag'batlantirilishi, yoki kelajakdagi kutilayotgan iste'mol ayniq vaqtga ko'ra diskonlanishi talab etiladi. Bu yerda asosiy masala iste'molning vaqtlararo taqsimotidir. Istiqbolda nafaqat shaxsning o'zi, balki keyingi avlodlar ham nazarda tutilgani uchun resurslar cheklangan sharoyitda bu murakkab tanlovdir.

Naflik esa iste'mol orqali hosil bo'lishini inobatga olinsa, har ikki diskontlashni umumlashtirib, naflik funksiyaning uzluksiz shakli va uning shartli maksimumini topish masalasi quyidagicha o'rtaga qo'yiladi:

$$max[U = \int_0^\infty u[c(t)]\, e^{-(\rho-n)t} dt]$$

*shu shart bilanki,*

$$\dot{a} = w + ra_t - c_t - na_t$$

Bunda $U$ – keltirilgan naflik, $u$ – naflik funksiyasi, $c(t)$ – iste'mlning $t$ vaqti bo'yicha funksiyasi, $\rho$ – vaqtlararo parametr, $n$ – aholi soni o'sishi tezligi $\dot{a}$ – aktivlardagi real vaqt oralig'ida o'sish, w – ish haqqi, $a_t$ – $t$ vaqtdagi aktiv.

Ushbu masalada integral naflik va uning vaqtlararo taqsimoti cheksiz va uzluksiz dinamika yig'indisini ifodalaydi. $\rho$ parametri $n$ parametridan ko'proq yoki kamroq bo'lishiga qarab bugungi iste'mol istiqboldagisidan qadrliroq bo'lib, pirovardida resusrlarga ham ta'sir qiladi.

Yuqoridagi nazariy formulirovkani empirik ishlanmasi bir nechta iqtisodchilar, jumladan, Ramsey F.P.[328] va uning o'sish modeli asosida Florio va Sitori[329]kabi olimlari tomonidan o'rtaga qo'yilgan bo'lib, asosan quyidagi ko'rinishga ega:

$$SDR = \rho + \varepsilon \cdot g$$

Bu yerda, $\rho$ – avvalgidek vaqtlararo parameter, ε – har bir iste'mol birligi bo'yicha naflik elastikligi, g – jon boshiga Yalpi ichki mahsulot o'sish sur'ati. Ushbu parametrlarning baholangan muqobil ko'rsatkichlari mavjud bo'ladi.

Sotsial diskontlash stavkasini baholash masalasiga kelsak, yuqorida ta'kidlanganidek, u kapital qo'yilmalarga muqobil xarajat bo'lganligi uchun amalda ko'plab yondashuvlar mavjud, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi va rivojlangan mamlakatlarining hisobotlarida quyidagilar o'rin olgan:

- SRRI – xususiy investitsiyalarga qo'yilgan sostsial Stavka;

---

[328] Ramsey, F.P. (1928) 'A mathematical theory of saving', The Economic Journal, 38(152): 543 559.

[329] Florio, M. and Sirtori, E. (2013). The Social Cost of Capital: Recent Estimates for the EU Countries. Centre for Industrial Studies Working Paper 03, Milan, Italy.

- STRP – vaqt tanlovi asosida qo'yilgan sostsial Stavka;
- WAA – o'rtacha vazn yondashuvi;
- Kapitalning soyali narxi va boshqalar.

Dunyo mamlakatlarida yuqoridagi yondashuvlarning modifikatsiyalari o'ziga xos metodlarda ishlab chiqilgan bo'lib, SDR stavkasi miqdoriy baholangan. Jumladan, Avstraliyada SRRI/SOC asosida 7%, Kanadada – 8%, Germaniya, Yaponiya va Norvegiyada – 4%, Hindiston va Pokistonda – 12%, Yangi Zelandiyada – 5%, Niderlandiyada – 5,5%, Filippinda – 10%, AQSHda SRRI/SOC va STRP asosida 3-7%, Lotin Amerikasida 12% gacha, Yevropa Ittifoqida STRP asosida 3-5%. Xalqaro moliyaviy tashkilotlarda, jumladan, Yevropa investitsion banki STRP asosida 3,5-5,5%, Jahon banki, Afrika taraqqiyot banki, Amerika taraqqiyot banki SRRI/SOC asosida mos ravishda 10-12%, 6-9% va 12% tashkil etadi[330].

Xulosa qilib aytganda, sotsial diskont stavkasi asosida loyihalash prinsiplari an'anaviy moliyalashtirish va investitsion modellariga muqobil bo'lishi bilan birga ularni modifikatsiya qilish uchun kombinatsion parametr bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Xususan, portfellarni shallantirishda oddiy va imtiyozli aksiyalar, davlat va korporatsiyalar obligatsiyalari, S&P 500, DOW, NIKKEY, NASDAQ kabi indekslari, neft fyucherslari, valyuta, derivativlar va boshqa moliyaviy aktivlar qatorida portfel tarkibini risk va daromad, qisqa va uzoq muddat kesimida diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq. Chunki investorlar barqaror loyihani qo'llasalar ham daromadlari barqaror bo'lishini hohlaydilar.

Makro darajaga kelsak, an'anaviy ravishda ushbu diskontlash rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilib kelgan bo'lsa ham, so'nggi yillarda u asosida stavkalarni belgilash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarbligi oshmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri tarixan resurslarga boy bo'lgan mamlakatlarda ham jon boshiga tabiiy resusrlar taqchilligi, ekologiyaning yomonlashishi masalalari kun tarkibiga chiqmoqda. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat mahalliy, balki xalqaro hamkorlik bilangina amalga oshishi, ekstensiv o'sish samarasizligi va intensiv o'sish vaqti kelganligi ayon bo'lmoqda. Bunday sharoyitda ham jamiyat, ham har bir shaxs farovonligini rivojlantiradigan mezonga ehtiyoj bo'lishi tabiiydir.

## *Adabiyotlar ro'yxati:*


1. *Catalano Gelsomina, Pancotti Chiara. Estimations of SDR in selected countries, Working Paper N. – CSIL – Centre for Industrial Studies (Milan, Italy), 01/2022. – 24 p.*
2. *Daron Acemoglu. Introduction to modern economic growth model. – Princeton University Press, 2009. – 1009 p.*
3. *Florio, M. and Sirtori, E. (2013). The Social Cost of Capital: Recent Estimates for the EU Countries. Centre for Industrial Studies Working Paper 03, Milan, Italy.*
4. *Erkaboyev A.B. Barqaror iqtisodiy o'sishning dinamik tavsifi // International scientific and practical conference. Sustainable Economic Growth: Integrating Green Economy, Principles and Practices. April 12, 2025. https://doi.org/10.5281/zenodo.15193377*
5. *Ramsey, F.P. (1928) 'A mathematical theory of saving', The Economic Journal, 38(152): 543 559.*
6. *Romer P. M. Human Capital And Growth: Theory and Evidence // NBER Working paper. — 1989. — № 3173. — doi:10.3386/w3173.*


[330] Catalano Gelsomina, Pancotti Chiara. Estimations of SDR in selected countries, Working Paper N. – CSIL – Centre for Industrial Studies (Milan, Italy), 01/2022. – 24 p.